



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

GLOBAL TA'LIM VA MILLIY METODIKA TARAQQIYOTI

**mavzusidagi VIII an'anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani
MATERIALLARI**

**Toshkent
2024-yil, 26-aprel**

UO‘K:378.147(575.1)

“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Matн] / — Toshkent: “Anorbooks”, 2023. — 456 b.

Mazkur to’plamdan tilshunos va adabiyotshunos olimlar, metodistlar, akademik litsey hamda umumta’lim maktabi o‘qituvchilari, tadqiqotchilar, magistrant, talabalarning maqola va tezislari o‘rin olgan. To‘plamda global ta’lim va milliy metodika, ona tili va o‘zbek (davlat tili) tilini o‘qitish, adabiyot fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar hamda til va adabiyot ta’limida innovatsion g‘oyalar kabi mavzular o‘z aksni topgan.

To‘plam ona tili, o‘zbek (davlat) tili va adabiyoti ta’limi, uni o‘qitish metodikasi sohasidagi mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrant hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

M.Abdullayeva, I.Ishonxonova, S.Inomjonova, F.Qulsaxatov, M.Elboyeva, M.Qosimova

Mas’ul muharrir

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetova

Taqrizchilar:

Pedagogika fanlari doktori, dotsent K.Mavlonova
Ped fanlari falsafa doktori, (PhD) dotsent S.Kambarova

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti “O‘zbek adabiyoti ta’limi” kafedrasi tomonidan “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusida 2024-yil 26-aprelda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

*To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning ilmiy saviyasiga
mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.*

UO‘K:378.147(575.1)

bir maqolda ham o‘kinch, ham uzr, ham o‘zining oddiy banda ekanini tan olish, ham bir insonda bo‘lgani kabi o‘zini oqlash mazmuni qisqa, aniq ifodasini topadi.

Ma’lum bo‘ladiki, Abdulla Qodiriy barcha asarlarida folklorizmning o‘rni katta badiiy qimmatga ega bo‘lib, asar mohiyatini o‘quvchiga singdirishga xizmat qiluvchi omildan mahorat bilan foydalana olgan. Yozuvchining “Mehrobdan chayon” romanidagi “Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug“, “Xotin kishining boshi, uy ichining og‘ir toshi”, “Oltin olmasang, duo ol”, “Sut bilan kirgan, jon bilan chiqar”, “O’tkan kunlar” romanidagi “Bilgan topib so‘zlar, bilmagan - qopib”, “Pichoqni o‘zingga ur, og‘rimasa – birovga”, “Bir ko‘rgan bilish, ikki ko‘rgan tanish”, “Qars ikki qo‘ldan chiqadi” kabi o‘nlab maqollarning har biri asar matnida muhim badiiy-estetik vazifani bajarishi bilan ahamiyatli.

Yuqorida qayd qilingan mulohaza va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriy prozasi poetikasida folklorizmning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, A. Qodiriy prozasida folkloriga oid vositalarning poetik funktsiyasini ko‘rsatish, folklor namunalarining mohiyatini yoritib, adib asarlardagi badiiy tasvir vositalarining folklor bilan uyg‘unligini tadqiq qilish qodiriyshunoslik yo‘nalishi-da dolzarb ahamiyatga ega masalalardan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур. Ташкент: Akademnashr. 2014. 256 б.
2. Литературный энциклопедический словарь. - М.: Советская энциклопедия, 1987. – С.469.
3. Кичик асарлар.-Тошкент. Фафур Ўлом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969.- 212 б.
4. Қодирий. А. Уткан кунлар.роман.- Тошкент.: “Info Capital Group”, 2017.-488 б.
5. Қодирий. А. Адибни хотирлаб. роман.- Тошкент.: “Info Capital Group”, 2017.-584 б

BOLALAR FOLKLORINING JANR XUSUSIYATLARI

Hulkar Aliqulova

Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetining katta o‘qituvchisi
aliqulovahulkar@gmail.com

Annotatsiya: Xalq og‘zaki ijodi o‘rganilganda, kattalar va bolalar folkloriga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bolalar folklori va janrlarining o‘ziga xos xususiyatlari ijro usulida va poetikasida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, bolalar repertuaridagi o‘yin qo‘shiqlarning ba’zida kattalar folklori bilan uzviy bog‘liq ekanligi, taqlid asosida ko‘chib o‘tgan poetik ifodalarning mavjudligi janr xususiyatlarni aniqlashda muhim omil bo‘la oladi. Maqolada bolalar folklorining janr xususiyatlari, badiiyati, ijro usuli va ijro shakli tahlil etilgan.

Kalit so‘z: folklor, bolalar qo‘shiqlari, syujet, an’ana, tahlil, marosim, sanama, ramz, badiiy ifoda, tez aytish, variantlilik.

Abstract:

When studying folklore, it is appropriate to analyze it separately into adult and children’s folklore. The specific features of children’s folklore and genres are clearly visible in the performance method and poetics. In particular, the fact that game songs in children’s repertoire are sometimes inextricably linked with adult folklore, the presence of poetic expressions transferred based on imitation can be an important factor in determining genre characteristics. The article analyzes the genre characteristics, artistry, performance method and performance form of children’s folklore.

Key words: folklore, children’s songs, plot, tradition, analysis, ceremony, date, symbol, artistic expression, fast telling, variation.

Bolalar folklorida o‘yin qo‘shiqlar, sanamalar, qiziqmachoq, ovutmachoq, hukmlagich, yalinchoq, erkalamaga kabi janrlar mavjud bo‘lib, ularning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilganda, ma’lum ma’noda kat-

talarning ishtiroki ko'zga tashlanadi. Folklorshunos olimlardan G'.Jahongirov, O.Safarov, Sh.Turg'unov, N.Safarovlar o'zlarining bir qancha maqola va tadqiqot ishlarida bolalar folkloriga oid masalalarni o'rganishgan. Bolalar folkloridagi ba'zi janrlar kattalar tomonidan (bolalar uchun) ijro etilsa, ba'zilari aynan bolalar tomonidan (garchi kattalarga taqlid sezilsa-da) ijro etiladi. Shu nuqtai nazardan bolalar folklorini ikki guruhg'a ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Kattalar ijrosidagi va bolalar ijrosidagi namunalar shaklida. Chunki, tahlilda ijrochi bilan bog'liq jarayonlar janr xususiyatlarni aniqlashda muhim omil hisoblanadi.

Bolalar ijrosidagi sanamalar, hukmlagichlar, yalinchqolar, qiziqmachoqlarning poetikasi tahlil etilganda kichik voqealarni qamrab olgani bilan o'ziga xosdir. O.Safarov bolalar folklorini o'rganar ekan ularning ijrosidagi har bir namunada bolalarning dunyoqarashlari bilan bog'liq hodisalar namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Bugungi kunda bolalar o'yin qo'shiqlari va aytimlari ijrosi anchagina passivlashgan. Ammo, ba'zi hududlarda yangi variantlari yuzaga kelgan. Og'zaki ijodning boqiy yashash tizimi ham ana shunday variantlilik bilan bog'liqdir. Bu har qanday folklor janrlari uchun xosdir.

Bolalar folklorining bugungi kundagi faol janrlaridan biri sanamalardir. Olim O.Safarov sanamalarning janr xususiyatlarini o'rganar ekan undagi asosiy mezon bolalarning bolalarga o'rgatish uslubni mayjud ekanligini ta'kidlaydi. Chunki bolalar folkloridagi asosiy janrlar bolalarning jamoasida o'r ganiladi va o'rgatiladi.

S.Avezov sanamalarning mavzu-mohiyatiga va ohangiga asoslanib, uch guruhg'a bo'ladi:

- 1.So'qma sanamalar.
- 2.Voqeaband sanamalar.
- 3.Kumulyativ sanamalar [Avezov, 2004: 80].

S. Avezov voqeaband sanamalarda raqam va ma'noli so'zning o'zaro munosabati va qay birining ustuvorligiga ko'ra ularning ikki xilini: «Raqam sanamalar», «So'z sanamalar» kabi turlarga ajratib o'rganishni maqsadga muvofiq deb biladi. Shuningdek, sanamalarning bir o'yin turlarida muntazam qo'llanilishi yoki barcha o'yinlarda birdek iste'molda bo'lishi nuqtai nazaridan ham ikkiga bo'linadi: 1. Maxsus (xoslangan) sanamalar. 2. Umumiy barcha (o'yinlarda qo'llanilaveradigan) sanamalar.

Namangan viloyatida keng tarqalgan bekinmachoq tipidagi «Chikkildak» deb nomlanuvchi o'yindagi sanama maxsus(xoslangan) sanamalar tarkibiga kiradi. O'yinda besh-olti bola ishtirok etadi. «Uya» – «pakka»ni qo'riqlash uchun bitta navbatchi qolishi lozim bo'ladi. Uni aniqlash uchun o'yinning boshlang'ich qismi o'tkaziladi. Ikki ishtirokchi bola qo'llarini yuqoriga ko'tarib ushlagan holda «darvoza» yasaydilar. Qolgan ishtirokchilar bir-birlarini qo'llaridan tutib, halqa hosil qiladilar va «Semichka-semichka» sanama qo'shig'ini hammalari baravar aytib, birma-bir «darvoza»dan o'tib aylanadilar:

Semichka, semichka,
 Men boraman urushga.
 Urushlarni jang qilib...
 Pod-ruch-ka!
 O'yinning boshqa bir variantida esa:
 Aka-uka anjir,
 Darvozaga zanjir.
 Darvozani ochinglar,
 Cho'lga qarab qo'chinglar.

Tarkibida ruscha so'zlarning faol qo'llanganligi «Semichka-semichka» sanamasi «Aka-uka anjir» sanamasidan keyinroq paydo bo'lgan va parallel qo'llanilib kelgan.

«Chori chambar» o'yini sanamasi ham maxsus sanamalar sirasiga kiradi. Bolalar oyog'ini uzatib, doira bo'lib sanamani birgalikda sanaydilar. O'yinboshi sanama bo'g'inlariga mos ravishda bolalar oyoqlariga qo'lini tegizib, sanab boradi:

Chori chambar,
 Biri anbar,
 – Ola qush qayda?
 – Ola qush tog'da.
 Bir, ikki, uch
 San turib, san chiq.

Sanamaning eng so‘nggi bo‘g‘iniga to‘g‘ri kelgan oyoq egasi o‘yinda yutqazgan hisoblanadi va qolgan ishtirokchilar tomonidan shart bajaradi.

Osmondan pichoq tushdi,
Nemisga qarab tushdi.
Nemis o‘lamан dedi,
Jabbor ko‘maman dedi.
Eh, beh sen chiq,
Sening oting chumchuq,
Chumchuq jo‘xorini yeb ketdi,
Ertaga kelaman dep ketdi,
Poyezd yo‘lga chiqquncha,
Alladim, sulladim dep ketdi.

Bu sanamachoq ham shunday o‘yin o‘ynashdan oldin bir ishtirokchini tanlab olish uchun aytigan. Bunda nega aynan nemis so‘zi ishlataliyapti? Tahminimcha ikkinchi jahon urushida nemislarning fashistik harakatlari barchaga ma’lum. Shuning bizning yurtimiz ham mustamlaka sifatida fashistlarga qarshi kurashgan. Otalarining urushga ketishi, shu urush tufayli ko‘pgina qiyinchiliklarga duch kelgan oilalardagi bolalar shu urushni keltirib chiqqargan fashistlarni, ya’ni, nemislarni yomon ko‘rishgan. Shu tufayli balki o‘zlarining qo‘sish qo‘sish va sanamachoqlarida ularni keltirib o‘tishgan. Buning isboti sifatida aynan osmondan pichoq tushgani-yu, uni aynan nemisga qarab tushgani, uning o‘lamан deyishi, ya’ni, o‘lishi keltrilishini olishimiz mumkin.

Attim, battim, chumbattim,
Chumburabattim, chumbulchas.
Buni boshqacha variant ham bor:
Attim, battim, chimchuri,
Chimchuriga attim bom,
Bomba perim nazim chas,
Naza volni chorni chas.

Bu sanamani esa onamdan eshitganman. Uning matnidan ham ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrlarda yurtimiz Chor Rossiyasi mustamlakasi bo‘lgani uchun ham ba’zi ruscha so‘zlarning aralashuvi mavjud bo‘lgan.

Bobom sho‘rva pishirdi,
Ichiga sichqon tushirdi,
Yemayman, yemayman,
O‘n birgacha sanayman.
Bir, ikki, uch, to‘rt, besh,
Olti, yeti, sakkiz, to‘qqiz,
O‘n, o‘kara o‘n, chippidon,
Chippidanni bolasi kingkong,
Kingkongni bolasi karkidon.

Bu kabi sonlar ishtirok etadigan sanamalar juda ham ko‘p uchraydi. Uning aynan son qatnashgan qismini o‘zi ham alohida sanama bo‘lishi mumkin. Chunki bunday sonli sanamalarning asosan yuqoridagi qismi asosan o‘zgarib turadi.

Yoki:
Toshkentda futbol bo‘ldi,
Abdurahmon go‘l urdi.
Buni senga kim aytdi?
Hakala kuchukcha aytdi.
Hakala kuchukcha o‘lsin.
Bolasi bizga qolsin.
Bolasini sotaylik,
Sabzi piyoz olaylik.

Sabzi piyoz achchiq,
Yuragimiz sanchiq.

Sanamaning «hakala kuchukcha» qismi ham boshqa sanamachoqlar tarkibida uchrashi mumkin. Sanama qancha uzun bo'lsa, ishtirokchining tanlanishi shuncha uzoqlashadi. Chunki sanama qisqa bo'lsa, tanlanadigan ishtirokchi bilinib qolishi mumkin. Uni uzunroq qilib, tanlanish imkonini ham oshirishgan.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bolalar folklori o'ta murakkab yo'nalishdir. Buni ko'pgina folklorshunoslar ham ta'kidlagan. Shuning uchun ham bu sohada ilmiy tadqiqotlar nisbatan kamroq uchraydi. Chunki bolalarning tasavvurlari shunchalar boy bo'ladi, ularning boy tasavvuri mevasi bo'lgan bu namunalarning ma'nosini anglab yetish uchun ular kabi tasavvurga ega bo'lish lozim.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Avezov S. Sanama janri tabiatni va badiyati. – Toshkent, 2004. – 81 b.
2. Galiyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. – Toshkent: Fan. 1998.– 96 b.
3. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi. 1975. – 102b.
4. Safarov O. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folklorini o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. 2010.
5. Safarova N. O'zbek bolalar o'yin folkloti tabiatni va badiyati. – Toshkent, 2006. – 51 b.
6. Turg'unov Sh. Sanamalarning ayrim xususiyatlari doir // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – B. 85-87.

XOJA VA RABG'UZIY

Dilafruz Nazarova

ToshDO'TAU katta o'qituvchisi
ndilafruz476@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Xoja ijodida adabiy ta'sir masalasi hamda hikoyatlarining mavzu doirasi va adib mahorati o'rganiladi. Sulaymon alayhissalom, Luqmoni hakim, Iskandar kabi bir qator an'anaviy obrazlarning Rabg'uzyi va Xoja ijodidagi turli qirralari ochib beriladi. Ushbu an'anaviy obrazdan ko'pchilik ijodkorlar foydalangan bo'lib, ularidan farqli ravishda Xoja qanday foydalanganligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sulaymon, Luqmoni hakim, Iskandar, hikoyat, o'ziga xoslik, an'ana, mavzu, tamoyil.

Annotation: The article examines the issue of literary influence in Khoja's work, as well as the scope of his stories and literary skills. Various aspects of the works of Rabguzi and Khoja of a number of traditional characters such as Sulayman alayhissalam, Luqmoni hakim, Iskandar are revealed. This traditional image has been used by many artists, and how Khoja used it in contrast to them will be analyzed.

Key words: Sulayman, Luqmoni hakim, Iskandar, story, originality, tradition, theme, principle.

An'ana va o'zaro ta'sir adabiyot hamda san'atning barcha turlariga tegishli bo'lgan ijodiy jarayon. Bunda ijodkor o'zidan oldingi ijod qilgan salaflari tomonidan avloddan-avlodga o'tib kelayotgan mezon va qoidalariga asoslanib, ularning ba'zi tomonlarini takrorlaydi, qayta yaratadi, takomillashtiradi. Ana shunday ijodkorlardan biri Sayyid Podshohxojadir.

Xoja bir qator hikoyatlarining mavzusini xalqdagi mayjud naqllardan oladi. Sharq adabiyotida mashhur bo'lgan va donishmandlik ramzi sanalgan Luqmoni hakim, Sulaymon alayhissalom, Iskandar qatnashgan hikoyatlari alohida e'tiborga molik.

Luqmoni hakim sharq xalqlari orasida tengi yo'q hakim va donolik timsoli hisoblangan afsonaviy shaxs [O'zbek tilining izohli lug'ati, 1981:436].

Xoja Luqmoni hakim haqidagi hikoyatini "Miftoh ul-adl" asarining uchinchi "Zolimlarning bayonin qilur" bobida bayon etadi. Hikoyatda keltirilishicha, Luqmoni hakim bir qul edi. Xojasi bir kuni Luqmonga falon joyga bug'doy ekkil, yana falon joyga arpa ekkil deydi. Luqmoni hakim borib arpa ek

Rustam Yo'ldoshev. O'zbek tilida nomi noaniq, yetim qo'shimchalar o'z oilasini topsin!	61
Nazokat Yusufjonova. Ta'limda raqamlı texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari	63
Zoya Sarsenbaeva. Ingliz va o'zbek adabiyotida modernizm	66
Husniddin Qoraboyev. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslaridan uy vazifalar 4K ko'nikmasini shakllantirish	70
Xamza Elliyev. Maktab o'quvchilarining bilimini baholashda xorij tajribasini qo'llash	73
Adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari	77
Safo Matchonov. Miraziz A'zam ijodida falsafiy g'oyalar talqini	78
Sh.N.Axmedova. Zamonaviy turk she'riyatida yomg'ir obrazining talqinlari	82
Marg'uba Abdullayeva. G'azal tahlili xususida	85
Obidaxon Fayzullayeva. She'riy turkumlarda badiiy shartlilik va ishoralarning poetik funksiyasi	89
Zavqiddin Suvonov. Filologik ekspertiza: metodologiya obyekti	93
Komiljon Hamroyev. Hikoyada badiiy metamorfoza shakllari	96
M.Usmanova, Sh.Mamadaminova. Bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashning mazmuni	104
M.A.Yakubova, Muxlisa Begimova. Oilada xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida farzandlarni tarbiyalash	106
Nilufar Chuliyeva. Zamon va makonning mifopoetik talqini (Nazar Eshonql hikoyalari misolida)	110
Kabil Kubayev. Afsonalarning badiiy talqini	115
Abdunabi To'ychiyev. Nurali Qobul asarlarining mavzu ko'lami va obrazlar tabiatni	118
Djurayeva Xusnigul. Uch buyuk siymo	122
Oystaxon Usmonova. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanini tahlil qilish orqali yoshlarning mutolaa madaniyatini rivojlantirish	124
Dilnoza To'rayeva. Hissiy tafakkurning badiiy talqini	127
Abdulatif Primov. Abdulla Qodiriy nasrida folklor unsurlarining roli	130
Hulkar Aliqulova. Bolalar folklorining janr xususiyatlari	133
Dilafruz Nazarova. Xoja va Rabg'uziy	136
Rahim Mardanov. Tasavvufiy obrazlar talqini haqida olimlarning fikrlari	138
Sardor Jo'raqulov. Alisher Navoiy qit'alari xususida	140
Olmos Xurramov. Badiiy asar tarixiyligi: umumnazariy tamoyillar	143